

**PARLAMENT JURNALISTIKASI RIVOJLANISHIDA RAQAMLI  
PLATFORMALARNING O‘RNI****Mirzaolim Rustambekov***O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti*[rmirzo98@gmail.com](mailto:rmirzo98@gmail.com)<https://orcid.org/0009-0003-2266-7615>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda parlament jurnalistikasining raqamli platformalarda yoritilishi, uning zamonaviy media makonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda parlament faoliyatini internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia vositalari orqali yoritishning o‘ziga xos jihatlari, tezkorlik, interaktivlik hamda auditoriyaga ta’sir mexanizmlari yoritib berilgan. Shuningdek, parlament jurnalistikasining fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi roli, davlat organlari faoliyati ochiqligini ta’minlashdagi ahamiyati hamda raqamli muhitda uchraydigan muammolar — feyk xabarlar, manipulyatsiya va axborot xavfsizligi masalalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida raqamli texnologiyalar parlament jurnalistikasining samaradorligini oshirishi, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirishi va siyosiy kommunikatsiyaning yangi modelini shakllantirishi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** parlament faoliyati, media makon, jurnalistik etika, faktcheking, interaktivlik, data jurnalistika, fuqarolik jamiyati, axborot xavfsizligi.

XXI asr axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyalar asri sifatida insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Internet va raqamli platformalarning keng ommalashuvi ommaviy axborot vositalari faoliyati ham tub burilishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Parlament faoliyatining internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia platformalari orqali yoritilishi fuqarolarning siyosiy jarayonlardan xabardorligini oshirish bilan birga, davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlashda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ilmiy tadqiqotchi Sevara Zufarova ham o‘zining “O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o‘rni” nomli izlanishida Huquqiy-demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ko‘ppartiyaviylikning rivojlanishiga katta ahamiyat berilishi kerak deb yozadi<sup>50</sup>. Ammo bu jarayonda parlament jurnalistikasi funksiyasi to‘laqonli ishlamagani uchun ham avvallari qonunchilik jarayonlarida fuqarolik jamiyati isstitutlari, yurtdoshlarimizning

<sup>50</sup> “O‘zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o‘rni” - Zufarova S. - Toshkent: O‘zMU, 2020. — 56-bet

ishtiroki juda sezilarli bo'lmagan. Ayni shu sababli ham Parlament jurnalistikasi demokratik jamiyatning ajralmas qismi sifatida aholiga qonun chiqaruvchi organ faoliyati, yangi qonun loyihalari, parlament muhokamalari hamda deputatlar faoliyati haqida muhim axborotlarni sodda va tushinarli tilda berib boradi. Aholi yangi qabul qilinayotgan qonun loyihasi nima ekanligi yoki bu yangi loyihadan maqsad nima ekanligini aniq tushunmas ekan, ularning bu jarayondagi faolligini oshirish qiyin bo'lib qolaveradi. "OAVning siyosiy ijtimoiylashuvdagi ishtiroki fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli platformalar esa ushbu jarayonni yanada tezkor, interaktiv va ommabop shaklda yetkazilishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalari va media makonida siyosiy kommunikatsiyaning yangi modeli shakllanmoqda. Unda auditoriya nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni muhokama qiluvchi, baholovchi va tarqatuvchi faol subyektga aylangan. Shu jihatdan parlament jurnalistikasining raqamli platformalardagi faoliyati ilmiy va amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Parlament jurnalistikasi — qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari faoliyatini yoritishga ixtisoslashgan bo'lib, uning asosiy maqsadi parlament faoliyatini jamiyatga xolis va tezkor yetkazish, fuqarolik jamiyati vakillarida siyosiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishdan iborat.

**Parlament jurnalistikasi quyidagi vazifalarni bajaradi:**

- parlament faoliyatini ommaga tushunarli tarzda yetkazish;
- qonun loyihalarining mazmun-mohiyatini sharhlash;
- deputatlar va senatorlar faoliyati haqida axborot berish;
- davlat va jamiyat o'rtasidagi kommunikatsiyani mustahkamlash;
- fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish;
- parlament faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini shakllantirishdan iborat.

An'anaviy OAV davrida parlament jurnalistikasi asosan gazetalar, televideniye va radio orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda internet jurnalistikasi ushbu yo'nalishning asosiy manbasiga aylangan.

Raqamli platformalar — internet asosida faoliyat yurituvchi kommunikatsion vositalar majmui bo'lib, ular axborotni tezkor uzatish, saqlash va tarqatish imkonini beradi. Telegram, Facebook, Instagram, YouTube, X (Twitter), internet nashrlari va podkast platformalari zamonaviy parlament jurnalistikasining asosiy vositalariga aylanib bormoqda. Internet jurnalistikasi parlament faoliyatini real vaqt rejimida yoritish imkonini bermoqda. Parlament majlislari, qonun muhokamalari va siyosiy bayonotlar bir necha daqiqalar ichida millionlab auditoriyaga yetib bormoqda. Bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonlaridan tezkor xabardor bo'lishini ta'minlaydi. Raqamli platformalarda auditoriya axborotni nafaqat qabul qiladi, balki unga munosabat bildiradi, sharh yozadi va muhokamada ishtirok etadi. Shu tariqa parlament va fuqarolar o'rtasida ikki tomonlama kommunikatsiya shakllanadi. Bugungi

parlament jurnalistikasi matn bilan cheklanib qolmayapti. Video, audio, infografika, jonli efir va animatsiyalar siyosiy axborotning ta'sirchanligini oshirmoqda. Ayniqsa, murakkab qonun loyihalarini sodda grafikalar orqali tushuntirish auditoriya uchun qulaylik yaratadi.

Raqamli platformalar geografik chegaralarni yo'qotdi. Endilikda parlament faoliyati haqidagi axborotlarni nafaqat mamlakat ichidagi, balki xorijdagi auditoriya ham kuzatmoqda. Bu esa davlatlarning xalqaro imijini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda siyosiy kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Deputatlar, senatorlar, siyosatchilar va matbuot xizmatlari Telegram va Facebook kabi platformalar orqali bevosita auditoriya bilan muloqot qilmoqda. Masalan, jonli efirlar orqali parlament sessiyalarining namoyish etilishi fuqarolarda siyosiy jarayonlarga nisbatan qiziqishni oshirmoqda. Qisqa videolar va reels formatidagi materiallar esa yosh auditoriyani siyosiy mavzularga jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar parlament jurnalistikasining demokratik xususiyatlarini kuchaytirdi. Chunki fuqarolar muhokama qilinayotgan qonun loyihalari bo'yicha o'z fikrini bildirish imkoniga ega bo'lmoqda<sup>51</sup>. Ammo raqamli platformalarning keng imkoniyatlari bilan bir qatorda qator muammolar ham mavjud. Tezkorlik ortidan quvish ayrim hollarda siyosiy axborotning chuqur tahlilsiz berilishiga olib kelmoqda. Bu esa auditoriyaning masalani to'liq anglamasligiga sabab bo'ladi. Raqamli muhitda noto'g'ri yoki soxta axborotlarning tez tarqalishi parlament jurnalistikasi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ba'zi internet nashrlari auditoriya jalb qilish maqsadida parlament faoliyatiga oid axborotlarni bo'rttirib yoki noto'g'ri talqin qilib berishi mumkin<sup>52</sup>. Bu esa jurnalistikaning professional tamoyillariga zid hisoblanadi. Kiberxavfsizlik ham zamonaviy parlament jurnalistikasining muhim muammolaridan biridir. Raqamli platformalarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining rasmiy veb-saytlari, Telegram kanallari hamda matbuot xizmatlari orqali parlament faoliyati muntazam yoritilmoqda. Jonli efirlar, onlayn brifinglar va raqamli media mahsulotlari parlament jurnalistikasining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, mamlakatda media sohasini liberallashtirish va jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq milliy parlament jurnalistikasida hali yechimini kutayotgan masalalar ham mavjud. Xususan, siyosiy jurnalistlarning ixtisoslashuvi, data jurnalistika elementlaridan foydalanish hamda xalqaro tajribalarni keng joriy etish zarurati mavjud. Misol uchun AQSH, Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasiga

<sup>51</sup> *Rahmonqulov N. Raqamli media va zamonaviy kommunikatsiya. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 215 b.*

<sup>52</sup> *Karimov N. Internet Jurnalistikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020*

qaraydigan bo‘lsak, ularda maxsus akredatsiya tizimi mavjud bo‘lib, jurnalistlar ushbu hujjat bilan yil davomida bemalol AQSH kongresida yoki Yevropa parlamentida faoliyatlarini bevosita olib borishlari mumkin<sup>53</sup>. Xulosa qilib aytganda, parlament jurnalistikasi raqamli platformalar ta’sirida yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Zamonaviy texnologiyalar parlament faoliyatini tezkor, ochiq va interaktiv tarzda yoritish imkoniyatini yaratmoqda. Raqamli media fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi kommunikatsiyani mustahkamlashga xizmat qilmoqda<sup>54</sup>. Shu bilan birga, parlament jurnalistikasida professional etika, axborotning haqqoniyligi, faktcheking va siyosiy neytrallik tamoyillariga qat’iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda sun’iy intellekt, multimedia texnologiyalari va data jurnalistikaning rivojlanishi parlament jurnalistikasining samaradorligini yanada oshirishi kutilmoqda. Demokratik jamiyat taraqqiyotida parlament jurnalistikasi va raqamli platformalarning uyg‘unligi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, siyosiy madaniyatni yuksaltirish hamda davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

Mazkur ilmiy maqolada parlament jurnalistikasining raqamli platformalarda yoritilishi masalasi kompleks ilmiy yondashuv asosida tadqiq etildi. Tadqiqot davomida nazariy va amaliy metodlardan keng foydalanildi. Avvalo, tahliliy metod asosida parlament jurnalistikasi, siyosiy kommunikatsiya hamda raqamli media sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, zamonaviy media tendensiyalari va xorijiy tajribalar o‘rganildi. Ushbu metod parlament faoliyatining internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishiga oid nazariy qarashlarni tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod orqali O‘zbekiston va xorijiy davlatlar parlament jurnalistikasi tajribasi o‘zaro solishtirildi. Xususan, parlament faoliyatini Telegram, Facebook, YouTube va internet portallari orqali yoritish samaradorligi, auditoriya bilan ishlash mexanizmlari hamda multimedia vositalaridan foydalanish darajasi qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqotda kontent-tahlil metodidan ham foydalanilib, parlamentga oid materiallarning mavzusi, axborot uzatish uslubi, sarlavhalarning ta’sirchanligi, multimedia elementlarining qo‘llanilishi hamda auditoriya faolligi tahlil qilindi. Monitoring metodi orqali parlament faoliyatini yorituvchi rasmiy sahifalar va internet nashrlari ma’lum vaqt davomida kuzatildi. Bu usul axborot uzatish tezligi, muntazamligi va interaktivlik darajasini aniqlash imkonini berdi. Statistik tahlil metodi yordamida esa parlamentga oid materiallarning ko‘rilishlar soni, ulashish ko‘rsatkichlari, izohlar va

<sup>53</sup> UNESCO. *Journalism, Fake News and Disinformation Handbook*. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.

<sup>54</sup> To‘xtayev I. *Siyosiy jurnalistika asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 224 b.

foydalanuvchilar reaksiyasi o‘rganildi. Natijada raqamli platformalarning parlament jurnalistikasi samaradorligiga ta‘siri aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida parlament jurnalistikasini raqamli platformalarda yanada rivojlantirish bo‘yicha qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, parlament muxbirlari va siyosiy jurnalistlar uchun data jurnalistika, faktcheking, multimedia kontent yaratish hamda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus media treninglar tashkil etish tavsiya etiladi. Bu jurnalistlarning professional kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, parlament faoliyatini yoritishda multimedia formatlaridan keng foydalanish muhim hisoblanadi. Xususan, qonun loyihalari va parlament sessiyalarini infografika, qisqa videolar, podkastlar, animatsion roliklar hamda jonli efirlar orqali yoritish auditoriyaning siyosiy jarayonlarga qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, yosh auditoriya uchun qisqa va vizual kontentlar samarali kommunikatsion vosita bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli platformalarda feyk xabarlar va manipulyatsiyalar tarqalishining oldini olish maqsadida parlament jurnalistikasida faktcheking tizimini kuchaytirish zarur. Shu bois parlament faoliyatiga oid axborotlarni tekshiruvchi maxsus media guruhlar va mustaqil faktcheking markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, parlamentning rasmiy raqamli platformalarini modernizatsiya qilish, interaktiv mobil ilovalar yaratish va ochiq ma‘lumotlar bazasini shakllantirish davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi kommunikatsiyani mustahkamlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda auditoriya bilan interaktiv muloqotni rivojlantirish ham muhim omillardan biridir. Jonli savol-javoblar, onlayn muhokamalar, so‘rovnomalar va jamoatchilik fikrini o‘rganishga qaratilgan mexanizmlar parlament jurnalistikasining samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, data jurnalistika elementlarini keng joriy etish, statistik ma‘lumotlarni grafik va diagrammalar orqali taqdim etish murakkab siyosiy axborotni auditoriya uchun tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi. Raqamli platformalar parlament jurnalistikasining rivojlanishida muhim kommunikatsion maydon sifatida xizmat qilmoqda. Zamonaviy media texnologiyalari parlament faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va tezkorligini ta‘minlash bilan birga, fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ham kuchaytirmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. To‘xtayev I. Siyosiy jurnalistika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 224 b.
3. McQuail D. McQuail’s Mass Communication Theory. – London: Sage Publications, 2013. – 632 p.

4. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. – New York: New York University Press, 2006. – 308 p.
5. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti.
6. Oliy Majlis Senatining rasmiy veb-sayti.
7. Rahmonqulov N. Raqamli media va zamonaviy kommunikatsiya. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 215 b.
8. UNESCO. Journalism, Fake News and Disinformation Handbook. – Paris: UNESCO Publishing, 2018.